

TA'LIMGA E'TIBOR MAMLAKATNI QUDRATLI QILADI

Rahmonova Zulfiya Bahromovna

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi

“Umumta'lism fanlari” kafedrasи

yuristlar uchun ingliz tili fani o'qituvchisi

Telefon: +998995111402

Zrahmonova0189@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10441808>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda ta'lim va tarbiya, ilm-fan sohasida qaratilayotgan e'tibor, amalga oshirilayotgan, islohotlar bu soha ravnaqi uchun xizmat qiladigan qonunchilik hujjatlari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim va tarbiya, ilm-fan, mamlakat taraqqiyoti, Uchinchi Renessans, o'qituvchilarining sha'ni va qadr-qimmati.

THE FOCUS ON EDUCATION MAKES THE COUNTRY POWERFUL

Abstract. This article will focus on the legislative acts of the country, which are being paid attention in the field of education and education, science, are being implemented, reforms serve for the prosperity of this area.

Key concepts: education and upbringing, science, country development, the third Renaissance, the honor and dignity of teachers.

ВНИМАНИЕ К ОБРАЗОВАНИЮ ДЕЛАЕТ СТРАНУ СИЛЬНОЙ

Аннотация. В данной статье рассматриваются законодательные акты, направленные на развитие образования и воспитания, науки в нашей стране, проводимые реформы.

Ключевые понятия: образование и воспитание, наука, развитие страны, третья Возрождение, честь и достоинство учителей.

Tarixiy voqeliklardan ma'lumki, mamlakatning rivojlanganlik darajasi birinchi navbatda o'sha yurtda ta'limga qanchalik e'tibor qaratilganligi bilan belgilanadi va buni aslo inkor etib bo'lmaydi. To'g'ri, boshqa omillar ham mamlakat taraqqiyotida muhim rol o'ynashi mumkin, lekin birlamchi ahamiyat kasb etmaydi. Qaysiki davlatning iqtisodiy salohiyati baquvvat, fuqarosi farovon hayot kechirayotgan ekan, ijtimoiy soha taraqqiyoti yuksak ekan, demak o'sha davlat ta'lim va ilm-fan taraqqiyotiga birinchi navbatdagi masala sifatida qaragan, adolatli siyosat olib borgan, qonun ustuvorligiga qat'iy amal qilgan, inson huquqlarini oliy qadriyat deb baholagan. Bu tarixiy mutloq haqiqatdir.

Yurtboshimiz aytganlaridek: “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq.

Biz keng ko'lalni demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik.

Biz maktabgacha ta'lim va mактаб та'лими, олий ва о'рта максус та'лим тизими hamda ilmiy-madaniy muassasalarни bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, mактаб muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz.¹

Bugungi kunda mamalakatimizda amalgalash oshiralayotgan islohotlar jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahrirda qabul qilinishi Yangi O'zbekistonning bugungi va istiqboldagi taraqqiyoti yo'lida beqiyos ahamiyat kasb etadi, deb ishonch bilan aytish mumkin. Asosiy Qonunimizda o'qituvchilarga bag'ishlangan alohida konstitutsion normanining kiritilishi tom ma'nodagi tarixiy voqelikdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasida O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etilishi hamda davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi aniq belgilab qo'yildi.

"...Finlyandiya, Yaponiya hamda Janubiy Koreya singari davlatlar asosiy e'tibor va sarmoyani inson resursini shakllantirishga yo'naltirdilar. Millat sifatida qad rostlash va dunyoning rivojlangan davlatiga aylanishiga faqatgina ta'lim sohasini isloq etish, buning uchun o'qituvchilarning jamiyatda eng obro'li qatlamga aylantirish orqaligina erishish mumkin degan to'g'ri xulosaga keldilar.

Natijada, hozirda ushbu davlatlar aholisining yarimi oliy ma'lumotga ega ekaniga guvoh bo'lish mumkin. Bunday davlatlarda xalqning bilimi va zakovati bilan taraqqiyotga erishish imkoniyatini beradigan ixtiolar va kashfiyotlar qilinishga erishildi. Mamlakat iqtisodiyoti rivojlandi. ularning yalpi ichki mahsuloti tabiiy boyliklarga ega bo'lgan ko'pgina davlatlarning yalpi ichki mahsulotidan katta ekani..."² ko'rish mumkin.

Ta'lim sohasida amalgalash oshiralayotgan islohotlar barobarida 2020 yil 23 sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni³ ham boyitilgan va takomillashtirilgan holda yangi tahrirda qabul qilindi.

Mazkur qonunda ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq qilib belgilab berildi. Ya'ni, ta'lim turlari: maktabgacha ta'lim va tarbiya; umumiy o'rtta va o'rtta maxsus ta'lim; professional ta'lim; oliy ta'lim; oliy ta'limdan keyingi ta'lim; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; maktabdan tashqari ta'limdan;

Ta'lim olish shakllari esa: ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi); ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy); dual ta'lim; oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish; katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish; inklyuziv

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqi. <https://aza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv-30-09-2020>.

² B.Qosimov. O'qituvchilar nufuzi va mavqeini yuksaltirish Yangi O'zbekistonda inson resursining shakllanishida hal qilushi ahamiyatga ega. <https://xs.uz/uzkr/post/oqituvchilar>.

³ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 2020 yil 23 sentyabr O'RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>.

ta’lim; eksternat tartibidagi ta’lim; mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlashdan iborat etib belgilandı.

“Mamlakatimizning kelgusi taraqqiyotini o’ylab, o‘qituvchi va muallimlarning hayotimizdagi nufuzi va mavqeini oshirish maqsadida ularning maqomini qonun darajasida belgilashni taklif qilaman. Ushbu qonunda yoshlarga ta’lim va tarbiya berish jarayonida o‘qituvchilar o‘zlarining salohiyatini to‘liq namoyon etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, ularni ijtimoiy, huquqiy, moddiy qo’llab-quvvatlash choralari kafolatlanishi kerak”⁴, - deya ta’kidlagan edi Prezidentimiz.

Olib borilgan islohotlar tufayli bugungi kunda o‘qituvchilarning huquqlari davlat himoyasida bo‘lishini, ularning kasbiy faoliyatiga noqonuniy aralashuv, boshqa majburiy va jamoat ishlariga jalb qilish javobgarlikka sabab bo‘lishi belgilab qo‘yildi.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida 2023 yil 11 sentyabr PF-158-son Farmoni⁵da ham O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotining strategiyasida alohida yo‘nalish sifatida har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish belgilanib, unda pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish ustuvor vazifa qilib qo‘yildi.

Xulosa shuki, bugun har bir o‘qituvchi, ustoz va tarbiyachi, oliygoh o‘qituvchisi ta’lim va tarbiya, ilm-fan sohasidagi eng so‘nggi ilg‘or ijobiy yangiliklarni o‘quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim, saviya va dunyoqarash egasi, umuman olganda, zamon va jamiyatimizning eng ilg‘or namoyondalari bo‘lishlari kerak.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi 2020 yil 23 sentyabr O‘RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida 2023 yil 11 sentyabr PF-158-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи nutqi. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv-30-09-2020>.
5. B.Qosimov. O‘qituvchilar nufuzi va mavqeini yuksaltirish Yangi O‘zbekistonda inson resursining shakllanishida hal qilushi ahamiyatga ega. <https://xs.uz/uzkr/post/oqituvchilar>.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи nutqi. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv-30-09-2020>.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida 2023 yil 11 sentyabr PF-158-son Farmoni.